




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o‘zgarishlar va ularning tahlili, so‘z asosida yuz beradigan o‘zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq ja‘niltpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarida o‘zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o‘zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko‘chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po‘lkan shoir ijrosidagi “Gulnor pari” dostonining morfologik xususiyatlari (bulung‘ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o‘zbeklar shevasi o‘rganilishining dolzarbligi	373

4-O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo‘shiqlarda an‘anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, “Alpomish” dostonida islomiy-ma’rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O‘zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO‘XTAQULOVA, Xalq qo‘shiqlari matnida “ko‘z” bilan bog‘liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an‘ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O‘zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

XALQ QO'SHIQLARI MATNIDA "KO'Z" BILAN BOG'LIQ IFODALARNING BADIY TAHLILI

ARTISTIC ANALYSIS OF EXPRESSIONS RELATED TO "EYE" IN THE TEXTS OF FOLK SONGS

Iroda ERNAZAROVA,
SamDU dotsenti, fil.f.f.d. (PhD)
Nigora TO'XTAQULOVA,
SamDU magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694

Annotation. *Uzbek folk art, as one of the most ancient and stable layers of our national culture, embodies the historical memory, worldview and socio-cultural experience of the people. In this system, ritual songs occupy a special place, which are not only an aesthetic phenomenon, but also an important communicative unit that performs a certain social function. Uzbek folklore, namely ritual songs, express the people's ideas, beliefs and values related to different periods and situations through language. This article also discusses the reflection of various expressions, especially expressions related to the «eye» in lyrical genres, and their unique features.*

Key words: *song, concept of "eye", magical imagination, eye magic, poetry, semantic unity, linguocultural layer, systematic study.*

Zamonaviy tilshunoslikda folklor matnlarini tahlil qilish, lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish, xususan, ularning leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini ifoda etish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, o'zbek marosim qo'shiqlaridagi badiiy ifodalarni tadqiq etish folklor matnining ichki strukturasi, uning semantik qatlamlari hamda funksional-uslubiy imkoniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu esa ularni nafaqat tilshunoslik, balki lingvokulturologiya va etnolingvistika doirasida ham o'rganishni taqozo etadi. Zero, marosim qo'shiqlari milliy mentalitet, ramziy tafakkur va madaniy hayotni til orqali ifodalanishning yorqin namunasidir. Shu jihatdan qaraganda, o'zbek marosim qo'shiqlarining badiiy ifodasini kompleks yondashuv asosida tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, u folklorshunoslik va tilshunoslik fanlari integratsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Lirik asarda boshlanma vazifasini yo ilk misra, yo ilk qo'shmisra, yo ilk band bajarishi mumkin. Odatda, boshlanma o'quvchini she'rni qabul qilishga emotsional jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi [Quronov 2018:1]. Quyida biz lirik janrlarda ko'p uchraydigan "ko'z" bilan bog'liq ifodalarga va ularning xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz. Avvalo, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da keltirilgan "ko'z" so'zining ma'nolariga diqqat – e'tiborimizni qaratsak. Lug'atda 30 dan ziyod "ko'z" bilan bog'liq birikmalarning ma'nolari keltirib o'tilgan. Bu so'zning o'zida 4 ta asosiy ma'no bor. Bular: 1. Tirik mavjudotning ko'rish a'zosi: *ko'z kosasi, ko'z oqi...* 2. Nazar, nigoh; qarash: *(Kumushning) ko'zlari o'ynaguvchi qizlarda bo'lsa ham, haqiqatda boshqa bir narsani ko'rgandek.* 3. Ko'rish qobiliyati: *ko'zi xira, ko'zi o'tkir, ko'zi ojiz.* 4. *ko'chma* Ba'zi narsalarning biror belgi bilan ajralib, ko'zga o'xshab ketadigan qismi, bo'lagi: *derazaning ko'zi, yog'ochning ko'zi, buloqning ko'zi.* Bundan tashqari *ko'z qismoq, ko'z tashlamoq, ko'z tikmoq, ko'z tutmoq, ko'z uzmaslik, ko'z urishtirmoq, ko'z yugurtirmoq, ko'zdan kechirmoq, ko'zdan qochirmoq, ko'zdan qolmoq, yomon ko'z, jonini ko'ziga ko'rsatmoq, ishning ko'zini bilmoq, ko'z ochib ko'rgan, ko'z ochib yumguncha, ko'z ochirmaslik, ko'z tanish, ko'z tegmoq, ko'zga yaqin, ko'zga surtmoq, ko'zda tutmoq, ko'zi yorimoq, ko'zi ochilmoq, ko'zi tor, ko'zi qattiq, ko'zini yog' bosmoq,*

ko'rgani ko'zi yo'q [O'zbek tilining izohli lug'ati 2006:2] va shu kabi boshqa bir qator birikmalarni lug'atda ko'rishimiz mumkin.

Quyida o'zbek xalq og'zaki ijodi lirik janriga oid bo'lgan ba'zi misralarni ko'rib chiqamiz.
*Qoshingni qaro deydilar,
Qoshi qora ukam, yor-yor.
Ko'rsat qoshingni man bir ko'ray,
Jonim ukam-ey, yor-yor.
Ko'zingni quralay deydilar,
Ko'zi quralay ukam, yor-yor
Ko'rsat ko'zingni man bir ko'ray
Jonim ukam-ey yor-yor.*

Biz bilamizki, insonning ko'zi va ko'rish qobiliyati O'rta Osiyo xalqlarida, jumladan, o'zbeklarda qadimdan magik qudratga ega bo'lgan xususiyatlardan biri sanaladi [Sarimsoqov 1986:3]. Bahodir Sarimsoqov marosim folklori janrlaridan biri bo'lgan kinna misolida ko'zning magik qudratiga inonch, undan saqlanish, tekkan ziyonlarni magik harakatlar va predmetlar bilan davolash haqida atroflicha fikr yuritgan.

Ko'z magiyasiga inonch jahonda juda keng tarqalgan. Agar marosim folklorida ko'zning salbiy magik xususiyatlariga inonch ko'proq tarqalgan bo'lsa, xalq nomarosim lirikasida uning sevgi bilan bog'liq sehrli fazilatlari o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga ayrim qo'shiqlarda ko'z magiyasining marosimiy qirralari ham saqlanib qolgan:

*Olti qizning ichida oting Tuyma,
Tuymajon tuya boylab tunda yurma.
Tuymajon tuya boylab tunda yursang,
Oq etingga ko'z tegar, qora qiyima,
Tol bo'yingga ko'z tegsa, mendan ko'rma* [Musaqulov 2010:4].

Xalq lirikasi namunalarini mutolaa qilar ekanmiz ko'z obrazi ifodalaydigan poetik xususiyatlar ishqiy kechinmalar bilan, sevgi – muhabbat masalalari bilan uyg'unlashib ketganligining guvohi bo'lamiz. Masalan:

*Beqasam to'nlar kiyib,
Muncha meni kuydirasiz.
Har zamonda bir qarab,
Beajal o'ldirasiz.*

Agar poetik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, bir qarash orqali o'ldirish mubolag'aning natijasi hisoblanadi. Tarixiy nuqtayi nazardan yondashilganda ko'z magiyasiga inonch tufayli bir qarash bilan odamni o'ldirish mumkinligi, yomon qarab ekinlarni quritish yoki kishini shaytonlatib qo'yishga ishonishgan.

*Isiriq, isiriq,
Chatnasin isiriq,
Patlasin isiriq,
Bachaga ko'z tegmasin.
Kim bachamga ko'z qilsa,
Ko'zlari oqib tushsin.*

Bu marosim lirikasi namunasi *ko'z tegmoq, ko'z qilmoq* xurofiy tushunchaga ko'ra, birovning nazari tushishi sababli og'rimoq, ziyon yetmoq ma'nolarini ifodalaydi. Shunda ona yoki, umuman, oiladagi yoshi katta buvijonlar farzandining mana shunday holatga tushib qolmasligi uchun bolani beshikka belagan payti kuylab beradi.

*Qoshingning qarolig'i,
Ko'zingning zebolig'i,
Jonga jafa qiladir*

*Yorimning balolig'i.
Qarasam ko'rinmaydir,
Daryoda tiniq tongdir.
Mening bo'zlaganimni,
Suygan yor qachon anglar.*

Yuqorida keltirilgan namunalardan farqli o'laroq bu misralarda ko'z bilan bog'liq ifodaning ijobiy ma'no kasb etayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Zero, adabiyotshunos olim H. Ahmedov ta'kidlaganidek: "... fikrni siqiq, ixcham va falsafiy – badiiy shaklda ifodalash she'riyat uchun fazilat sanaladi" [Ahmedov 2020:5]:

*Qoshingiz qora ekan,
Ko'zingizga kuydim man.
Tilingiz totlig' ekan,
Labingizdan suydim man.*

Xulosa qilib aytganda, xalq lirikasida "ko'z" konsepti nafaqat oddiy sematik birlik doirasida, balki murakkab semantik va lingvokulturologik qatlamlarga ega bo'lgan ko'p funksiyali badiiy obraz sifatida namoyon bo'ladi. U xalq poetik tafakkurida insonning ichki kechinmalari hamda munosabatlarni ifodalashdek muhim vazifasini bajaradi. Xususan, sevgi, sog'inch, hijron, sadoqat, iztirob kabi emotsional holatlar "ko'z" bilan bog'liq obrazlar orqali yuqori darajadagi ekspressivlik va obrazlilik bilan ifodalanadi. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, mazkur konsept xalq lirikasida keng maydonni qamrab olib, individual hissiy tajribani umumxalq estetik qadriyatlar bilan uyg'unlashtiradi. "Ko'z" obrazi orqali milliy mentalitet, axloqiy-me'yoriy qarashlar va madaniy qadriyatlar tizimi o'ziga xos poetik shaklda aks ettiriladi. Bu esa uning nafaqat badiiy-estetik, balki kognitiv va kulturologik ahamiyatini ham belgilaydi. Shunday qilib, xalq lirikasida "ko'z" konsepti til va tafakkur integratsiyasida shakllangan, yuqori darajadagi o'tkir ma'no va emotsional-ekspressiv quvvatga ega bo'lgan badiiy ifoda sifatida baholanishi mumkin. Uni tizimli ravishda o'rganish folklorshunoslik, lingvopoetika hamda lingvokulturologiya yo'nalishlarida muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018. – 225-b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, II tom, 2006. – 443-445-betlar.
3. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – T.: Fan, 1986. – 181-b.
4. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010. – 137-b.
5. Ahmedov H. So'z hayrati va saboqlari. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 51-b.

